O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI INSON RESURLARI VA MAHALLA TARAQQIYOTINI BOSHQARISH INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:
№ BD-60710200-SIM1604
2024 yil "16" 12

"TASDIQLAYMAN"
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2024 yil "__" _____

"SOHA IQTISODIYOTI VA MENEJMENTI"
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	700000 – Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
Ta'lim sohasi:	710000 – Muhandislik ishi
Ta'lim yo'nalishi:	60710200 – Biotexnologiya

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
SIM1604	2026-2027	6	4
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O‘zbek		4

	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Umumiy (soat)
1.	Soha iqtisodiyoti va menejmenti	48	72	120

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	**I. FANNING MAZMUNI** **Fanni o‘qitishdan maqsad** – talabalarga iqtisodiy bilimlarning nazariy asoslarini, iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini, iqtisodiy qonunlar va tamoyillarini o‘rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat. **Fanning vazifasi** – bozor iqtisodiyoti sharoitida soha iqtisodiyoti va menejmenti fanining tutgan o‘rni va uni o‘rganish, iqtisodiyot tushunchasi, iqtisodiy tizim turlari, korxonaning asosiy fondlari aylanma mablag‘lari, korxonaning moliyaviy faoliyati va sarf xarajatlarni, iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish iqtisodiy siyosatining salbiy va ijobiy oqibatlariga baho berish, ishchi kuchidan samarali foydalanish, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish va mehnat samaradorligini oshirish va uni baholash usullarini o‘rganishdir.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M)	
M1	**“Soha iqtisodiyoti va menejmenti” fanining mohiyati va vazifalari.** Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi. Ishlab chiqarish omillari – korxona iqtisodiyotining tarkibiy qismlari. Iqtisodiy tizim turlari. An’anaviy, buyruqbozlik, bozor, aralash iqtisodiyotning xususiyatlari. “Korxona iqtisodiyoti va menejmenti” fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi.
M2	**Asosiy kapital va ishlab chiqarish quvvati.** Asosiy kapital – asosiy fondlar tarkibi, strukturasi, hisobga olishi va baholanish usullari. Asosiy fondlar qiymatining qayta hisoblash indekslari. Asosiy fondlarning emirilishi va amortizatsiyasi. Jismoniy va ma’naviy emirilish mohiyati. Asosiy fondlarning ta’miri va ularni moliyalashtirishning mohiyati. Asosiy fondlardan foydalanish ko‘rsatkichlari. Ishlab chiqarish quvvati
M3	**Koroxonaning aylanma (oborot) kapitali.** Aylanma kapital – aylanma mablag‘larning mohiyati va strukturasi. Ishlab chiqarish aylanma fondlari, ularning tarkibi va asosiy ishlab chiqarish fondlaridan farqi. Muomila fondlari tarkibi. Aylanma fondlar va muomila fond strukturasi. Aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash. Aylanma mablag‘larni me’yorlash. Aylanma mablag‘lar aylanishi, aylanish doirasidagi uch bosqichning mohiyati, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda aylanish tezligini o‘sishining ahamiyati. Aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlari.
M4	**Kimyo va oziq-ovqat sanoati korxonasining mehnat resurslari.** Korxona kadrlarining potensial va uni bozor munosabatlari sharoitidagi roli. Korxona faoliyati samaradorligini oshirishda insoniy omilining ta’siri. Xodimlar tanlovi va o‘sishining mezonlari. Mehnat resurslarining tavsifi. Sanoat ishlab chiqarish va nosanoat personal tushunchasi. Sanoat ishlab chiqarish personalining ishchi va xizmatchilariga bo‘linishi, ularning tarkibi. Mehnat resurslarining miqdoriy tasnifi. Xodimlarning ro‘yxati, hozirgi, o‘rtacha ro‘yxat soni, ularning mohiyati. Kadrlarni boshqarish va ishchi kuchini rejalashtirish. Ish vaqti balansi. Kadrlar qo‘nimsizligi tushunchasi va unga ta’sir etuvchi omillar. Kadrlarni tanlash, tayyorlash va qayta tayyorlash.
M5	**Soha korxonalarida mehnat unumdorligi.** Mehnat unumdorligining mohiyati va ahamiyati. Mehnat unumdorligini o‘sishi – ishlab chiqarish hajmi oshishi va ishlab chiqarish sarflari kamayishining manbai, korxona va mamlakat iqtisodiy potensialini kuchayishida muhim yo‘nalishdir. Mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlari va ularning hisob usullari. Mehnat unumdorligi o‘sishi va darajasi tushunchalari. Mehnat unumdorligini o‘stirish omillari va yo‘llari.
M6	**Kimyo va oziq-ovqat sanoati korxona xodimlarining mehnat haqlari.** Mehnat haqini ratsional tashkil qilishning tamoyillari va maqsadi. Tarif tizimining mohiyati va uning tarkibiy elementlari. Tarif – malakaviy ma’lumotnoma, tarif setkasi, tarif stavka tushunchalari, ularning tarkibi va maqsadli ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasida qo‘llaniladigan yagona tarif setkaning xususiyatlari. Xodimlar mehnat haqining shakllari. Vaqtbay va ishbay mehnat haqi, ularning ko‘rinishlari, qo‘llash shartlari, ish haqi hisobining metodikasi. Ish haqi fondini aniqlash usullari, uni ishlangan va ishlanmagan vaqtni inobatga olgan holda tarkibi. O‘zbekiston Respublikasida Mehnat kodeksi, mehnat motivatsiyasi.
M7	**Kimyo va oziq-ovqat sanoati korxonalari sarflari, ularning mohiyati, strukturasi va tasnifi.** Bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarish sarflarining iqtisodiy mohiyati. “Mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladigan, mahsulot,

	ishlab chiqarish va realizatsiyasi bo'yicha sarflar tarkibi hamda moliya natijalarining shakllanish tartibi haqida"gi Yo'riqnomasi. Tannarx strukturasi, uni kamaytirish yo'llari.
M8	**Kimyo va oziq-ovqat sanoati korxonasi moliya ko'rsatkichlari.** Moliyaning mohiyati va funksiyalari. Pul resurslarini hosil bo'lishi va xarajatlashda yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar tarkibi. Korxonaning moliya resurslari, ustav kapitali, korxona moliya resurslarining hosil bo'lish manbalari. Korxona foydasi, foyda miqdoriga ta'sir etuvchi omillar, foydaning funksiyasi. Foyda ko'rsatkichlari. Korxona rentabelligi. Mahsulot rentabellik darajasi, monopol mahsulot rentabelligi, sotilgan mahsulot rentabelligi, ishlab chiqarish fondlari va aktivlar rentabelligi, shaxsiy kapital, bir aksiya rentabelligi.
M9	**Bozor sharoitida narx (baho)larning shakllanishi.** Korxona xo'jalik faoliyatida mahsulot nar (baho)ni ahamiyati. Baho turlari. Aksiz va qo'shilgan qiymat solig'i tushunchasi. Chakana baholarni shakllanishi.
M10	**Boshqaruv maqsadga yo'naltirilgan jarayon. Boshqarishning tamoyillari va funksiyalari.** Boshqarish tushunchasining paydo bo'lishi. Boshqaruv maqsadi. boshqaruv funksiyalari. Boshqaruv usullari. Boshqaruv strukturasi.
M11	**Boshqaruv usullari.** Boshqaruv usullari. Ishchi jamoalarga qo'yilgan talablar. Boshqaruv jarayonida ko'rsatiladigan zarur chora-tadbirlari. Boshqaruv usullarining qo'llanishi. Iqtisodiy boshqaruv. Tashkiliy-ma'muriy boshqaruv. Ijtimoiy-ruhiy boshqaruv.
M12	**Boshqaruv kadrlarni tashkil qilish jarayoni. Zamonaviy menejerning portreti.** Boshqaruv menejeri. Menejerlar yollanma boshqaruvchilar. Boshqaruv pog'onalari. YUqori pog'onadagi menejer. O'rta pog'onadagi menejer. Quyi pog'onadagi menejer.
III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: seminar (S) Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.	
S1	"Soha iqtisodiyot va menejmenti" fanning mohiyati va vazifalari.
S2	Asosiy kapital va ishlab chiqarish quvvati
S3	Korxonaning aylanma (oborot) kapitali
S4	Soha korxonalarida mehnat unumdorligi
S5	Kimyo va oziq-ovqat sanoati korxona xodimlarining mehnat haqlari
S6	Kimyo va oziq-ovqat sanoati korxonalari sarflari, ularning mohiyati, strukturasi va tasnifi
S7	Kimyo va oziq-ovqat sanoati korxonasi moliya ko'rsatkichlari
S8	Bozor sharoitida narx (baho)larning shakllanishi
S9	Boshqaruv maqsadga yo'naltirilgan jarayon
S10	Boshqarishning tamoyillari va funksiyalari
S11	Boshqaruv usullari
S12	Boshqaruv kadrlarni tashkil qilish jarayoni
S13	Zamonaviy menejerning portreti

IV. **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Soha iqtisodiyoti va menejmenti" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	O'zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha rivojlanish konsepsiyasi
2.	Samaradorlik sanoat ishlab chiqarishining «ko'zgusi» sifatida
3.	Kadrlar siyosati va uning sanoat taraqqiyotidagi roli
4.	Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezon va ko'rsatkichlari
5.	Asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, tarkibi va tuzilishi
6.	Aylanma fondlarning mohiyati va ahamiyati
7.	Ishlab chiqarish quvvatlari va ulardan foydalanishni yaxshilash yo'llari
8.	Mehnat va unga haq to'lash
9.	Korxonalarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va turlari
10.	Foyda va maxsulot tannarxining ahamiyati
11.	Mulkchilik shakli bo'yicha korxonalarning turlari
12.	Korxonalarning asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari
13.	Moliyaviy resurslar va ularning turlari
14.	Korxona aylanma fondlarning mohiyati va ahamiyati
15.	Moliya tizimi va uning ishlash mexanizmi
16.	Korxonaning aylanma kapitalning rentabelligi va uni hisoblash
17.	Maxsulot tannarxini pasaytirish manbaalari
18.	Davlat va munitsipial korxonalarning iqtisodiyotdagi o'rni
19.	Korxona aylanma mablag'larning tarkibi
20.	Korxona foydasi va uni hisoblash yo'llari
21.	Kichik korxonalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari
22.	O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari
23.	Mahsulot tannarxini pasaytirishning manbalari va omillari
24.	Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizasiyasi
25.	Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari
26.	Moliyaviy axborotlarning iqtisodiy boshqarish yo'llari
27.	O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari

28.	O‘zbekistonda kimyo sanoati rivojlanish yo‘llari
29.	O‘zbekistonda yengil sanoati rivojlanish yo‘llari
30.	O‘zbekistonda oziq-ovqat sanoati rivojlanish yo‘llari

“Soha iqtisodiyoti va menejmenti” fani bo‘yicha mustaqil ta’lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko‘nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. Mazkur vazifalarni yaxshiroq tasavvur qilish va amalga oshirishda ushbu fan ham ma’lum hissa qo‘shadi, deb o‘ylaymiz. Shundan kelib chiqqan holda fan vazifasi aniqlangan: oliy ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari talablariga muvofiq talabalar, o‘quvchilarda tadbirkorlikning mohiyati, ahamiyati va roli, belgilari va tamoyillari, ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy, moddiy, moliyaviy, insoniy, boshqarish, marketing, tahliliy asoslari to‘g‘risida bilimlar tizimini shakllantirish; O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash siyosati, amaliyoti, muammolari va istiqbollari to‘g‘risida tasavvur hosil qilish; tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to‘g‘risida talabalar qay tarzda o‘zlashtirish, bilim ko‘nikmasiga ega bo‘lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	**V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: • nazariy va amaliy muammolarni hal qilish uchun asosiy ilmiy va nazariy bilimlarni qo‘llash; • iqtisodiyot va menejment sohasidagi tushunchalar va toifalarni; • korxonalarni boshqarish va resurslardan samarali foydalanishni; • korxonalarda hujjatlar va ular haqida tushuncha, hujjatlar aylanishi haqida ***tasavvur va bilimga ega bo‘lishi;*** • tizimli va qiyosiy tahlil qilish; • tadqiqot qobiliyatiga ega bo‘lish; • muammoni hal qilishda fanlararo yondashuvga ega bo‘lish; • texnik qurilmalar, axborotni boshqarish va kompyuter ishlaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;*** • zamonaviy telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish; • yangi texnologiyalarni yaratish, ularning raqobatbardoshligini va iqtisodiy samaradorligini baholash uchun buxgalteriya hisobini tashkil qilish va uning me’yoriy huquqiy asoslari ishlab chiqish; • iqtisodiy siyosat choralarini baholash va mikro - va makro darajasida strategik qarorlar qabul qilish uchun analitik materiallarni tayyorlash ***malakasiga ega bo‘lishi kerak.***
4.	**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** • ma’ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • *munozara,* • *o‘z-o‘zini nazorat.* • “Aqliy hujum”, • “Muammo”; • Krossvord
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta’limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

6. ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Ro‘ziyeva D.I. Korxona iqtisodiyoti (o‘quv qo‘llanma). – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. 268 b.
2. Muratov R.S. Korxona iqtisodiyoti. Darslik, Fan va texnologiya. 2014.
3. Ulashev I.O. Korxona iqtisodiyoti va menejmenti. O‘quv qo‘llanma/ tafakkur-Bo‘stoni, 2013.
4. Yo‘ldoshev N.Q., Nabokov V.I.“Menejment nazariyasi”. Darslik. T.TDIU, 2013.- 433 b.
5. Sharifxo‘jayev M.,Abdullayev Yo. Menejment. Darslik.T.: O‘qituvchi, 2001.- 704 b.
6. Menejment: darslik / N.K. Yo‘ldoshev, G.E. Zaxidov. - Toshkent: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. - 392 b.

QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi Farmoni.
2. Menejment nazariyasi: O‘quv qo‘llanma / E.D. Yusupov, Z.K. Kusharov - Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2019. - 320 b.
3. Inson resurslarini boshqarish (darslik) / Gulnora Abdurahmonova. – T.: O‘zR FA “Fan” nashriyoti davlat korxonasi, 2021. 696 b.

AXBOROT MANBALARI:

1. https://president.uz/uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
2. https://senat.uz/ – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining rasmiy veb-sayti

3. https://parliament.gov.uz/ – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining rasmiy veb-sayti 4. https://gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Hukumati rasmiy portal 5. https://www.imv.uz/ – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti 6. https://mehnat.uz/ – O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining rasmiy veb-sayti 7. https://gov.uz/en/miit – O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining rasmiy veb-sayti 8. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy-veb-sayti. 9. https://soliq.uz/ – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining rasmiy veb-sayti 10. https://www.lex.uz/uz/ – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining qonunchilik hujjatlari elektron bazasi.	
7.	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil “24” 08 dagidagi 1 -son bayonnomasi bilan ma’qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas’ullar:** **S.Q.Qurbonov** – Sharof Rashidov nomidagi SamDU “Inson resurslarini boshqarish” kafedrasi o‘qituvchisi, i.f.f.d.
9.	**Taqrizchilar:** B.M.Boboqulov – SamDU, «Tarmoqlar iqtisodiyoti» kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi. Sultonov Sh. – SamISI «Tarmoqlar iqtisodiyoti» kafedrasi mudiri, i.f.n., dotsent.

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug‘i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta’lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma’sul ishchi guruhi:

Rais – Arabov N.U.

Kafedra mudiri: **N.U.Arabov**

Institut direktori: **Sh.D.Djurakulov**

Sh. Rashidov nomidagi
SamDU O‘quv ishlari bo‘yicha
1-prorektor: **A. S. Soleyev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti Inson resurslarini boshqarish kafedrasi o‘qituvchisi, PhD S.Q.Qurbonovning «Soha iqtisodiyoti va menejmenti» faniga tayyorlagan fan dasturiga

TAQRIZ

Xo‘jalik yuritishning bozor mexanizmini shakllanishi, korxonalar va tashkilotlar faoliyatini boshqarishning prinsipial jihatdan yangi vazifalarini hal etishni talab qiluvchi chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy o‘zgartirishlarni asoslab berdi. Boshqaruvning diqqat markaziga o‘zgarib borayotgan tashqi muhitda korxonaning moslashuv va o‘z-o‘zini tashkillashtirish jarayonlari qo‘yilmoqda. Bunda, boshqaruv jarayonining o‘z xarakteri o‘zgarmoqda. U tobora ko‘proq ijodiy, kreativ xarakterga ega bo‘lmoqda. Mazkur sharoitlarda korxona faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish uning faoliyatini chuqur bilishga asoslangan bo‘lishi zarurki, bu boshqaruv jarayoni va tizimini har tomonlama tadqiq etishni taqozo qiladi. Tadqiqot menejmentning muhim tarkibiy qismini ifodalaydi. Chunki tadqiqotlarni amalga oshirmasdan korxonani samarali boshqarib bo‘lmaydi. Boshqaruv tizimlarini tadqiq etish – boshqaruvni, doimiy ravishda o‘zgarib turuvchi tashqi va ichki sharoitlarga muvofiq rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan faoliyat turidir.

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga iqtisodiy bilimlarning nazariy asoslarini, iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini, iqtisodiy qonunlar va tamoyillarini o‘rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat.

Shularni inobatga olib, “Soha iqtisodiyoti va menejmenti” fani yuzasidan tayyorlangan fan dasturi talabalarga yuqori darajada bilim olishiga ko’makchi bo’ladi deb hisoblayman.

Taqrizchi:
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasi mudiri,
i.f.n., dotsent Sh.Sultonov

IMZONI TASDIQLAYMAN
SamISI
KADRLAR BO'LIMI BOSHLIG'I

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti Inson resurslarini boshqarish kafedrasi o'qituvchisi, PhD S.Q.Qurbonovning «Soha iqtisodiyoti va menejmenti» faniga tayyorlagan fan dasturiga

TAQRIZ

Bizga ma'lumki, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, uning ko'lamini kengaytirish bilan bog'liq masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda "Soha iqtisodiyoti va menejmenti" fani muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu fan dasturi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohatlar korxonalarda ishlab chiqarishni rejalashtirish va rivojlantirishda tub o'zgarishlar yuz berishiga olib keldi. Korxona iqtisodiyotini tadqiq etish – asosiy kapital va ishlab chiqarish quvvatini, koroxonaning aylanma (oborot) kapitalini, kimyo va oziq-ovqat sanoati korxonasining mehnat resurslarini, mehnat unumdorligi, kimyo va oziq-ovqat sanoati korxona xodimlarining mehnat haqlari, kimyo va oziq-ovqat sanoati korxonalari sarflari, ularning mohiyati, strukturasi va tasnifi, kimyo va oziq-ovqat sanoati korxonasi moliya ko'rsatkichlari, boshqaruv maqsadga yo'naltirilgan jarayon ekanligi, boshqarishning tamoyillari va funksiyalarini, boshqaruv usullari, boshqaruv kadrlarni tashkil qilish jarayoni hamda zamonaviy menejerning portreti zamonaviy fanning eng dolzarb hamda istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Tadqiqotlar avval ham tayanch tushunchalardan biri va biznes natijalarini aniqlagan bo'lsada, menejmentda boshqaruv tizimining rivojlanish va takomillashish dinamikasini tadqiq etish – yangi hodisadir.

Zamonaviy menejmentda tadqiqot muvaffaqiyatning bosh omili, ilmiy tilda ifodalanganda esa – boshqaruv samaradorligini oshirishning bosh omili bo'lib hisoblanadi.

Shularni inobatga olib, "Soha iqtisodiyoti va menejmenti" fani yuzasidan tayyorlangan fan dasturi talabalarga yuqori darajada bilim olishiga ko'makchi bo'ladi deb hisoblayman.

Samarqand davlat universiteti "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasi dotsenti i.f.n. **B.M.Boboqulov**